

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No5

2026
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEXANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	10
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА.....	19
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНА	28
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLUATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH	34
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	41
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH.....	46
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	55
Alimova Dilafrō'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	61
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHAGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	75
Rajapov Xayrulla Bekdurdyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI	90
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	94
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	99
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	104
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH	110
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	



MHXS STANDARTLARIGA O'TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	116
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI	120
Turdikulova Moxira Maxmasharifovna	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI	125
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO'Y BERISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI	131
Dehqonov Oyatillo Mansurbek o'g'li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQUARISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQUISH...	136
Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg'ashova Madina, Jo'rayev Muhiddin	
JAHON MOLIVAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	140
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
KORXONALARDA "TEJAMKOR ISHLAB CHIQUARISH" KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJIRIBASI	144
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
HUDUDYIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO'LLARI	149
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQUARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO'SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH	154
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O'RNI	159
Irgashev Anvar Farxodovich	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	166
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР	171
Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	177
O'tbosarov Abrorbek Adxamjon o'g'li	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQUISH.....	182
Xamidova Zarifa Urol qizi	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI	189
Ro'zmetov Mansur	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	193
Shaydulova Marjona Alisher qizi	
KORXONALARNING MOLIVAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIVAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	198
Rizoyev Farrux Hikmatilloevich	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	203
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	208
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ	218
Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ	224
Тожалиев Шохрух Талип ўғли	
GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING	229
Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna	
O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH	234
Azlarova Aziza Axrorovna	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI	241
Marufxanov Davron Hasanovich	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI	249
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI	256
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI	261
Anvar Deberdiyev	
RAQAMLI XIZMATLARNING O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O'RNI	265
Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi	
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	271
Ruzibayeva Nargiza Hakimovna	
IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILIYATIGA YANGICHA YONDASHUV	276
Tadjiev Bexzod Umidjanovich	



IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILIYATIGA YANGICHA YONDASHUV

Tadjiev Bexzod Umidjanovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti

Iqtisodiyot kafedrası professori

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori.

E-mail: tadjievbekzod1985@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy va o'zbek olimlarining tadbirkor va tadbirkorlik qobiliyatiga oid qarashlari va evolutsiyasi, shuningdek, bugungi kunda taklif etilayotgan tadbirkorlik qobiliyati, qattiq, yumshoq va raqamli tadbirkorlik ko'nikmalarining zamonaviy nazariyalari o'rganilgan.

Kalit iboralar: tadbirkorlik, tadbirkorlik subyektlari, hard skills, soft skills, digital skills, tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik qobiliyati.

Аннотация. В данной статье рассматриваются взгляды и эволюция зарубежных и узбекских ученых на предпринимателя и предпринимательскую способность, а также современные теории предпринимательской способности, твердых, мягких и цифровых навыков предпринимательства, предлагаемых сегодня.

Ключевые слова: предпринимательство, субъекты предпринимательства, hard skills, soft skills, digital skills, предпринимательская деятельность, предпринимательская способность.

Annotation. This article examines the views and evolution of foreign and uzbek scientists on entrepreneur and entrepreneurial ability, as well as modern theories of entrepreneurial ability, hard, soft and digital skills of entrepreneurship offered today.

Key words: entrepreneurship, entrepreneurial subjects, hard skills, soft skills, digital skills, entrepreneurial activity, entrepreneurial ability.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida **"tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish hamda doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, xususiy sektorning YAIMdagi ulushini 80 foizga, eksportdagi ulushini esa 60 foizga yetkazish..."**[1] ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur dolzarb vazifani ro'yobga chiqarish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) subyektlarini faqat son jihatidan ko'paytirish bilangina cheklanmay, ularni sifat jihatidan ham yuksaltirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois tadbirkorlik faoliyatining sifat ko'rsatkichini ifodalovchi "tadbirkorlik qobiliyati" tushunchasini chuqur tadqiq etish, ushbu atamaga zamonaviy va yangicha yondashuvlarni o'rganish zarurati tobora yaqqol namoyon bo'la boshladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

KBXT taraqqiyotini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari va usullari, shuningdek tadbirkor shaxslarning tadbirkorlik qobiliyati masalalari ilk bor Richard Kantilyon, Adam Smit, Jan-Batist Sey, Frensis Uoker, V. Zombart, Yozef Shumpeter, Djon Keyns, Devid MakKlelland, Piter Druker kabi klassik iqtisodchilarning ilmiy ishlari doirasida yoritilib, unda mazkur yo'nalish keng va atroflicha aks ettirilgan [11,12,13,15,16,18].

MDH mamlakatlari olimlari T. Matveeva, S.V. Terebova, P.S. Pleshakov, E.A. Chekmareva, O.R. Verxovskaya, M.V. Doroxina, E.K. Klimova, T.A. Fotekova, S.V. Mitroxina, E.N. Vlasova tadqiqotlarida biznes subyektlarining tadbirkorlik qobiliyatini baholash bo'yicha uslubiy yondashuvlar ishlab chiqish va takomillashtirish masalalari ustida izlanishlar olib borilgan [33,36]. O'zbekistonda esa KBXTni rivojlantirishning ilmiy hamda uslubiy jihatlari S. G'ulomov, Yo. Abdullaev, T. Doschanov, S. Salaev, N. Murodova, U. G'afurov, M. Eshov, N.Fayzullayev, B. Tadjiev kabi iqtisodchi olimlar ishlarida keng yoritilgan [21,22,24,25].



Biroq iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda tadbirkorlikning sifat ko'rsatkichi hisoblangan tadbirkorlik qobiliyatini baholash mexanizmi masalalari alohida va monografik yondashuv asosida yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Shu sababli, **“tadbirkorlik”** va **“tadbirkorlik qobiliyati”** tushunchalarining mazmuni hamda ularning shakllanish bosqichlarini aniqlashtirish, inson tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo'lishining an'anaviy va zamonaviy ko'rinishlarini tahlil qilish, tadbirkorlik qobiliyatini baholash maqsadida uning sifat jihatlarini tasniflash, tadbirkorlik qobiliyatini sifat ko'rsatkichlari asosida baholash mexanizmlarini takomillashtirish va ustuvor yo'nalishlarini belgilash, rivojlangan davlatlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik qobiliyatini sifat jihatidan baholash bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish, shuningdek inson tadbirkorlik qobiliyatini “muhim mahorat indikatorlari” (KPI) orqali baholash mexanizmini ishlab chiqish hamda amaliyotda samarali qo'llanilayotgan usul va modellar asosida respublikamizda tadbirkorlikning barqaror va mutanosib rivojlanishini ta'minlash, doimiy monitoringini yo'lga qo'yish, ularning “hayotiy sikli”ni uzaytirish va tadbirkorlik rivojlanish tendensiyalarini aniqlash bo'yicha ilmiy-amaliy muammolarni hal etish hamda amaliyotga tatbiq qilishga real ehtiyoj yuzaga kelmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini KBXTni rivojlantirish sohasiga doir qonun osti hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni [1], 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, 2023-yil 14-sentyabrdagi PQ–306-son “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident qarori, 2021-yil 3-dekabrdagi PF-29-son “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida” [2], shuningdek 2021-yil 24-apreldagi PQ-5087-son “Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlari mazkur tadqiqotning me'yoriy tayanchi sifatida qabul qilindi.

Shuningdek, ushbu farmon va qarorlarda belgilangan iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, xususiyl mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini mustahkamlash, KBXT faoliyatini yanada rag'batlantirishga qaratilgan institutsional hamda tarkibiy islohotlarni davom ettirish yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda, shuningdek tegishli statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash jarayonida zamonaviy statistik yondashuvlar va kuzatuvlar, qiyosiy va tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya hamda deduktsiya usullaridan keng foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Tadbirkorlik” va **“tadbirkorlik qobiliyati”** atamalarining kelib chiqish tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, **“tadbirkor”** so'zi fransuz tilidagi **«entreprendre»** fe'lidan olingan bo'lib, o'zbek tilida **“o'z zimmasiga olish”** mazmunini anglatadi. Adabiyotlarda “tadbirkor” atamasi ilk bor **1253 yilda** uchragan bo'lib, **1500–1600 yillarda** keng qo'llanilgan [10].

Tadbirkor shaxslarning tadbirkorlik qobiliyatiga doir manbalarda turli qarashlar, yondashuvlar va tasniflar mavjud. Mazkur tasniflarni tahlil qilishni klassik iqtisodchilarning qarashlarini o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiq.

Klassik iqtisodchi olimlar fikrlarini tahlil qilgan holda, tadbirkorlik qobiliyatining asosiy fazilatlarini ajratib ko'rsatish uchun **1-jadvalda** “tadbirkor” shaxs hamda uning qobiliyatlariga berilgan ta'riflarni tizimlashtirish, ularni bir yo'nalishda jamlab, mavjud fikrlarni qiyosiy tarzda ko'rib chiqish mumkin (1-jadval).

1-jadval

“Tadbirkor” tushunchasining xronologik evolyutsiyasi [26]

Yil	Muallif	Tafsilot
1734	Richard Kantilon	Dastlabki tadqiqotchilardan biri sifatida tadbirkorni noaniqlik sharoitida qaror qabul qiladigan hamda o'z ehtiyojlarini qondirishga intiladigan shaxs sifatida ta'riflagan. [11]
1776	Adam Smit	Deyarli ilk bor tadbirkorlikning egoistik jihatini aniq ko'rsatib, tadbirkorni korxona egasi, xavf bilan bog'liq tijorat g'oyalarni hayotga tatbiq etuvchi shaxs sifatida talqin qilgan hamda uning asosiy vazifasi odatiy xo'jalik faoliyati doirasida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishdan iborat ekanini qayd etgan.[12]

1803	Jan-Batist Sey	Tadbirkor — maksimal ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishish maqsadida ishlab chiqarish omillarini birlashtiradigan hamda ularni uyg'unlashtirib boshqaradigan shaxs.[13]
1876	Frensis Uoker	Kapital ajratib, uning evaziga foiz oladigan shaxslarni tashkilotchilik qobiliyati hisobiga foyda ko'radiganlardan alohida farqlash lozim.[14]
1913	V. Zombart	Tadbirkorlik ruhiga ega bo'lish, pulga chanqoqlik, sarguzashtga ishtiyoq, zukkolik, ehtiyotkorlik, tirishqoqlik hamda odamlarga ta'sir o'tkaza bilish.[15]
1926	Yozef Alois Shumpeter	Tadbirkor — yangi mahsulotlarni yaratish qobiliyatiga ega bo'lgan hamda noaniqlik sharoitida o'z faoliyatini amalga oshiradigan jismoniy shaxsdir.[16]
1936	Djon Meynard Keyns	Tadbirkorlikning asosiy fazilatlariga qatoriga iste'mol bilan jamg'armani o'zaro bog'lay olish, tavakkal qilish qobiliyati, faollik ruhi, istiqbolga ishonch va boshqa jihatlari kiradi.[14]
1961	Devid Makklelland	Tadbirkor — mo'tadil tavakkalchilik sharoitida faoliyat yuritadigan baquvvat shaxsdir.[17]
1964	Piter Druker	Tadbirkor — har qanday imkoniyatdan maksimal darajada foyda olishga intiladigan shaxsdir.[18]
2026	Muallif talqinida	Tadbirkor — bozor imkoniyatlarini aniqlash va ularni resurslar kombinatsiyasi orqali qiymatga aylantirishga qodir, noaniqlik sharoitida tavakkalni boshqarib qaror qabul qiladigan, innovatsion va tashkiliy-boshqaruv funksiyalarini birlashtirgan iqtisodiy agentdir. Tadbirkorlik qobiliyati esa ushbu agentning qiymat yaratishga xizmat qiluvchi kompetensiyalari, motivatsiyasi va xulqiy sifatlarining o'zaro bog'langan tizimi sifatida izohlanadi.[37]

1-jadvalda tadbirkorlikka berilgan turli ta'riflardan ko'rinib turibdiki, 230 yil mobaynida ushbu atamaning mazmun-mohiyati izchil ravishda boyitilib va kengaytirilib borgan.

O'zbek iqtisodchi olimlaridan **Ahmadjon O'lmasov** va **Murod Sharifxo'jaevlar** ta'kidlashicha: "Tadbirkorlik faqat pul topish emas, balki yaratuvchanlik faoliyati orqali daromad olish omilidir" [19]. Mazkur olimlar tadbirkorlikning aynan **sifat jihatiga** alohida e'tibor qaratganlar.

Iqtisodchi olim **M. Rasulov** esa: "Tadbirkor — bu asosan mulkdor, o'rta va yirik mulk egasidir. Mulkdorlar sinfi deganda, avvalo, tadbirkorlikni tushunamiz. Tadbirkor o'z mulkidan kapital sifatida foydalanib, korxonalar tashkil etadi, tijorat bilan shug'ullanadi, boylikka boylik qo'shadi, mamlakatning iqtisodiy qudratini oshiradi. Agar tijorat ijara va qarz asosida olib borilsa ham, baribir, mahsulot, tovar uning mulkidir" [20], — deya ta'kidlab, tadbirkorlikning **mulkchilikka tayanuvchi tabiatini** alohida ko'rsatib bergan.

Akademik **S. G'ulomov** tadbirkorlikning innovatsion faoliyat bilan uzviy bog'liqligini alohida ta'kidlab, quyidagicha izoh beradi: "Tadbirkor shunday insonki, u pul mablag'lari, materiallar va ishchi kuchini jamlab, yangi mahsulot, yangi biznes hamda yangi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi" [21].

Sh. Shodmonov "Tadbirkorlik faoliyati — shakli va sohasidan qat'i nazar, foyda olish hamda undan samarali foydalanish maqsadiga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyatdir" [22], deb ta'riflaydi.

H. Abulqosimov esa tadbirkorlikni "Qonun yo'li bilan man qilinmagan... iqtisodiy unumli faoliyat turi" [23] sifatida qayd etadi.

Iqtisodchi olimlar S. Salae va T. Doschanovlar tadbirkorlik hamda tadbirkorlik faoliyatiga keng va tor ma'noda izoh berganlar: "Tadbirkorlik keng ma'noda shaxsiy manfaatga asoslangan, subyekt oldida turgan maqsadga erishishga qaratilgan, uning bevosita ishtirokida o'zining shaxsiy omillariga tayangan holda amalga oshiriladigan, oila xo'jaligini yuritishdan tortib, tovar ishlab chiqarish va sotish hamda xizmatlar ko'rsatishgacha bo'lgan yumushlar bilan bog'liq aqliy faoliyatdir. Tor ma'noda esa tadbirkorlik faoliyati — faqat iqtisodiy sohaning turli darajalarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini, ya'ni sohibkorlikni ifodalaydi" [24].

O'zbek iqtisodchi olimasi Nodira Murodova tadbirkorlikni "turli mulkchilik ko'rinishlarida xo'jalik yuritish usulidagi kategoriya" sifatida tahlil qilib, uning ikki yoqlama xususiyatini quyidagicha asoslaydi: bir tomondan, tadbirkor mulkchilikning turli shakllariga tayangan holda o'z mulkidan kapital sifatida foydalanib, korxonalar tashkil etadi, tijorat bilan shug'ullanadi hamda yangi usul va texnologiyalarni qo'llash orqali boylikni ko'paytiradi. Ikkinchi tomondan esa xo'jalik yuritish usuli sifatida menejment tamoyillari va marketing usullaridan foydalanib, ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va uyg'unlikni ta'minlaydi [25].

O'zbekiston Respublikasining ***"Tadbirkorlik to'g'risida"***gi Qonuniga muvofiq: "Tadbirkorlik — fuqarolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga qaratilgan mustaqil va tashabbuskor faoliyati bo'lib,



u fuqaroning o'z nomidan, o'z tavakkalchiligi bilan hamda o'zining yoki yuridik (huquqiy) shaxsning mulkiy javobgarligi asosida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyatdir" [8].

Tadbirkorlik qobiliyatiga doir zamonaviy yondashuvlarni inobatga olgan holda, uning xususiyatlarini aniqlash maqsadida namoyon bo'lish shakllarini umumlashtirib, ularni **2 ta guruhga** ajratish mumkin:

I. Inson tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo'lishining **an'anaviy shakllari**: "yakka tartibdagi tadbirkor", "kichik tadbirkor", "menejer", "oilaviy tadbirkor".

II. Inson tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo'lishining **zamonaviy shakllari**: "o'zini o'zi band qilgan shaxslar", "ichki tadbirkor", "innovatsion tadbirkor", "investor", "biznes-konsultant", "mahallada tadbirkorlikning tashkilotchisi" (2-jadval).

2-jadval

Inson tadbirkorlik qobiliyatining namoyon bo'lish shakllariga tafsilot [26]

№	Tadbirkorlik qobiliyatining namoyon bo'lish shakllari	Tafsilot
1	YaTT	Mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan boshqa ashyoviy huquq tufayli o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk asosida mustaqil tarzda faoliyat yuritadigan jismoniy shaxs [9] bo'lib, hozirda besh nafargacha xodimni yollash huquqiga ham ega [3].
2	Kichik tadbirkor	Cheklangan miqdorda yollanma ishchilar mehnatidan foydalanuvchi tadbirkorlik subyekti, korxona va mikrofirmaga egasi [27].
3	Menejer (ingl. manager, - «boshqarish»)	Korxona va kompaniya egasi bo'lmagan, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, boshqaruvning qonun-qoidalarini chuqur biladigan malakali mutaxassis — yollanma boshqaruvchi [28].
4	Oilaviy tadbirkor	Oila a'zolari tomonidan tavakkalchilik asosida va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi [7].
5	Ichki tadbirkor	Bu tadbirkorlik korxonasining yollanma xodimi bo'lib, u biznes egasi kabi barcha muammolarni hal etish uchun tavakkal qiladi va imkon qadar bor sa'y-harakatini safarbar etadi [29].
6	O'zini o'zi band qilgan shaxslar	Mehnat daromadi olishga yo'naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish hamda ishlarni bajarishda shaxsiy mehnati bilan bevosita ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tmagan, biroq mehnat staji hisobga olinishi va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan holda davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar [4].
7	Innovatsion tadbirkor	Yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularni joriy etish va amalda qo'llanishini ta'minlash bo'yicha innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar [5].
8	Investor	Foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga o'z mablag'larini va (yoki) qarz mablag'larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini yo'naltirish orqali investitsiya kiritishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti [6].
9	Biznes -konsultant	Biznes samaradorligini, tadbirkorlik jarayonlarining unumdorligini hamda kompaniya foydasini oshirish maqsadida tadbirkorlar va menejmentga ekspert yordamini ko'rsatuvchi shaxs [30].
10	Mahallada tadbirkorlik tashkilotchisi	Mahallada istiqomat qiluvchi aholining turli shakllarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun munosib imkoniyatlar yaratish orqali ishsiz va kam ta'minlangan shaxslarning mehnat layoqati hamda tadbirkorlik qobiliyatini ro'yobga chiqarishiga ko'maklashadigan hokimning yordamchisi [2].

Insonning kasbiy muvaffaqiyati **XIX asrda** asosan o'qish va yozish ko'nikmalari bilan baholangan bo'lsa, **XX asrga** kelib kasbiy yutuq ko'proq ingliz tili bilimdonligi hamda kompyuterda ishbilarmonlik darajasiga bog'liq bo'lib qoldi. "Bugun, XXI asrda tadbirkor kabi fikrlash va harakat qilish qobiliyati ayniqsa muhim, chunki yollanma mehnat jamiyatidan tadbirkorlikka o'tish muqarrar", — deya qayd etadi Vena Tadbirkorlik va innovatsiyalar instituti rahbari, professor **Nikolas Frank** [31].

Biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida ko'pincha tadbirkorning bilim hamda amaliy ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagani to'siq bo'lib qoladi. Shuning uchun, tadbirkorlikda barqaror muvaffaqiyatga

erishish uchun, bizningcha, tadbirkor **qo'shimcha qiymat yaratishga qodir bo'lgan tadbirkorlik qobiliyatiga** ega bo'lishi lozim.

Tadbirkorlik qobiliyatining mavjudligi va uning sifat darajasi tadbirkorning bir qator shaxsiy fazilatlari, kasbiy ko'nikmalari hamda tadbirkorlik mahoratiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Tadbirkorlik ko'nikmalarini aniqlash **Hall-Tonna (Hall-Tonna Model)** modeliga asoslanadi. Mazkur model to'rtta quyidagi ko'nikma turini ajratadi [32]:

Instrumental qobiliyatlar (Instrumental skills). Aqliy va jismoniy imkoniyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvi insonda o'zini kompetent his qilishiga sharoit yaratadi. Ushbu ko'nikmalar vazifani bajarishga yo'naltirilgan bo'lib, tadbirkor uchun o'rnini bosib bo'lmaydigan, zarur fazilatlar sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxslararo ko'nikmalar (Interpersonal skills). Boshqalarga nisbatan xatti-harakatlar bilan bog'liq bo'lib, odamlar o'rtasida aloqa va munosabatlarni yo'lga qo'yishda muhim, kalit rolni bajaradi.

Tasavvur qilish ko'nikmalari (Imaginative skills). Tasavvur va his-tuyg'ularning o'ziga xos qorishmasi sifatida yangi g'oyalarni ifodalash imkonini beradi. Bu ko'nikmalar asosan til orqali namoyon bo'ladi, sinergiya hosil qilib, boshqa ko'nikmalarni kuchaytiradi hamda shaxsning o'sishida tayanch omil bo'lib xizmat qiladi.

Tizimli ko'nikmalar (Systemic skills). Tasavvur qilish, sezgirlik va mahorat uyg'unlashuvi tizimning turli qismlarini yaxlit holda bog'langan tarzda ko'ra olishni ifodalaydi. Bunday ko'nikmalar voqelikni umumiy, yaxlit ko'rish bilan birga, uni tarkibiy bo'laklarga ajratish, so'ng esa ularni qayta birlashtirib, qismlar kesishadigan va o'zaro bog'liqlik yuzaga keladigan nuqtalarni aniqlash imkonini beradi.

Tadbirkorlik qobiliyatini tasniflashning **psixologik yondashuviga** ko'ra, tadbirkorlik faoliyatiga moyillik hamda psixologik tayyorgarlikni belgilovchi shaxsiy fazilatlar **uchta** quyidagi guruhga ajratiladi [33]:

"Asab tizimi va tafakkurning xususiyatlarini tavsiflovchi fazilatlar" guruhi. Unga: o'zgaruvchanlik, moslashuvchanlik, strategik fikrlash, stressga chidamlilik, yuklamalarga bardoshlilik, noaniq vaziyatlarda harakat qila olish, tavakkal qilishga tayyorlik kabi sifatlar kiritiladi.

"Motivatsion sohaning xususiyatlari" guruhi. Bu guruhga tadbirkorlik niyati (tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagi), muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi, shuhratparastlik singari fazilatlar kiradi.

"Liderlik fenomeni" guruhi. Ushbu guruhga liderlik va tashkiliy qobiliyatlar, mas'uliyat, qaror qabul qilish qobiliyati, muloqotga kirishuvchanlik, aloqalarni o'rnatish, muzokaralar olib borishga moyillik kabi fazilatlar kiritiladi.

Inson tadbirkorlik qobiliyatini bilim va tajribaga tayanuvchi fazilatlarga ajratgan holda tasniflash, fikrimizcha, mazkur qobiliyatni sifat jihatidan yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Yuqorida bayon etilgan tadbirkorlik fazilatlarini tasniflash bo'yicha ilg'or xorijiy va milliy tajribalar tahliliga tayangan holda, biz tadbirkorlik qobiliyatini baholash maqsadidan kelib chiqib, tadbirkor shaxsning sifat xususiyatlariga asoslangan quyidagi **3 turdagi "uch darajali" tasnifni** taklif etamiz:

1. qattiq tadbirkorlik ko'nikmalari (hard skills)
2. yumshoq tadbirkorlik ko'nikmalari (soft skills)
3. raqamli tadbirkorlik ko'nikmalari (digital skills).

Bunda tadbirkorlikni rivojlantirish darajasi tadbirkorlik ko'nikmalarining qanchalik rivojlanganligi bilan uzviy bog'liqdir. Kembrij lug'atida "ko'nikma" tushunchasi — "biror faoliyat yoki ishni yaxshi bajarish qobiliyati, ayniqsa siz uni mashq qilganingiz uchun" [34], deb izohlanadi. Adabiyotlarda esa mutaxassisni tavsiflovchi ko'nikmalar odatda quyidagi toifalarga ajratiladi [35]:

1. Qattiq ko'nikmalar (**Hard skills**) — professional malaka bilan bevosita bog'liq bo'lgan hamda o'qish, trening va seminarlar natijasida shakllanadigan texnik ko'nikmalardir.

2. Yumshoq ko'nikmalar (**Soft skills**) — shaxsiy, shaxslararo hamda moslashuvchan (adaptiv) ko'nikmalar majmuasidir.

3. Raqamli ko'nikmalar (**Digital skills**) — axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) sohasida yuzaga keladigan turli muammolarni hal etish qobiliyatini anglatadi [36].

Tadbirkorlikda muvaffaqiyatga erishish uchun tadbirkor shaxs qattiq, yumshoq va raqamli ko'nikmalarni uyg'un tarzda namoyon etishi maqsadga muvofiq. Xususan, qattiq tadbirkorlik ko'nikmalari (hard skills for entrepreneurship) — professional malaka bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, o'qish, trening va seminarlar orqali egallanadigan texnik ko'nikmalar; yumshoq tadbirkorlik ko'nikmalari (soft skills for entrepreneurship) — shaxsiy va shaxslararo munosabatlar hamda moslashuvchanlikka oid ko'nikmalar; raqamli tadbirkorlik ko'nikmalari (digital skills for entrepreneurship) esa — AKT doirasida turli masalalarni yechish imkonini beruvchi qobiliyat sifatida izohlanadi.

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlarimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, tadbirkorlik va tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yangicha yondashuvlar hamda baholashning zamonaviy usullarini qo'llash KBXT subyektlarining yanada taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ish bilan bandlikni oshirish va norasmiy bandlikni qisqartirishga qaratilgan qaror va farmonlar, berilayotgan imtiyozlar hamda keng imkoniyatlar mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikning yanada rivoj topishi uchun mustahkam zamin yaratadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadbirkorlik va tadbirkorlik qobiliyatining rivojlanishi hamda unga yangicha yondashuvlar bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

“Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida (2022–2026 yillar) uchinchi ustuvor yo‘nalish sifatida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashda tadbirkorlikni tezlashtirib rivojlantirish vazifasi belgilangan. Mazkur muhim vazifani samarali amalga oshirish uchun KBXT subyektlarini faqat son jihatidan ko‘paytirish bilan cheklanmasdan, ularni sifat jihatidan ham yuksaltirishga alohida e‘tibor qaratish zarur. Bu esa, eng avvalo, tadbirkorlik faoliyatining sifat o‘lchovi bo‘lib xizmat qiladigan “tadbirkorlik qobiliyati” tushunchasini chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

Tadbirkorlik sohasida barqaror muvaffaqiyatga erishish uchun tadbirkor shaxs qattiq, yumshoq va raqamli tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘zaro uyg‘un tarzda namoyon etishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Xususan, qattiq tadbirkorlik ko‘nikmalari (**Hard skills for entrepreneurship**) — professional malakaga bevosita bog‘liq bo‘lib, o‘qish, trening va seminarlar orqali shakllanadigan ko‘nikmalarni; yumshoq tadbirkorlik ko‘nikmalari (**Soft skills for entrepreneurship**) — shaxsiy, shaxslararo hamda moslashuvchan ko‘nikmalarni; shuningdek raqamli tadbirkorlik ko‘nikmalari (**Digital skills for entrepreneurship**) — axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida turli biznes muammolarini hal etish qobiliyatini qamrab oladi.

Fikrimizcha, tadbirkorlik sohasida faoliyat yuritayotgan subyektlarda ushbu qattiq, yumshoq va raqamli tadbirkorlik ko‘nikmalarini izchil rivojlantirish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatida yashil iqtisodiyot tamoyillariga alohida e‘tibor qaratgan holda ish yuritish mamlakatimizda tadbirkorlikning yanada taraqqiy etishiga, aholi bandligi darajasining oshishiga, bozorlarimizda substitut tovar va xizmatlar turlarining ko‘payishiga, import o‘rnini bosuvchi hamda eksportbop tovar va xizmatlar hajmining kengayishiga mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda PF-29-son “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrda “Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollangan xodimlarni davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo‘yish hamda soliq solinadigan daromadlar va chegiriladigan xarajatlar hisobini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 707-son qarori. (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.11.2021-y., 09/21/707/1088-son). <https://lex.uz/docs/-5739505>
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda 806-son “O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qaror. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.12.2020-y., 09/20/806/1662-son. <https://lex.uz/docs/-5182451>
5. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 24-iyul. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020-y., 03/20/630/1101-son. <https://lex.uz/docs/-4910391>
6. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 25-dekabr. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019-y., 03/19/598/4221-son. <http://icpmconsulting.com.ua/biznes-konsalting>.
7. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida. O‘zR qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y. 17-son, 188-modda, 2017y. 1-son, 1-modda. <https://lex.uz/docs/-2004956>
8. **Майданевич Ю.П., Чупрынина К.А., Григорьев Н.Н.** Эволюция и существенные характеристики понятия «предпринимательство». Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. Экономика и управление. – 2019. Т. 5 (71). № 4. С. 54–63.
9. Cantillon R. ([1755] 2010), Essai sur la Nature du Commerce en Général (An Essay on Economic Theory), English translation by the Ludwig von Mises Institute, published under the Creative Commons Attribution License 3.0, www.mises.org
10. Адам Смит. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо. 2020. –475 с.
11. Сэй Ж.Б. Трактат политической экономии / Ж.-Б. Сэй. – М., 1986. – 480 с.
12. Болор Банзрагч. Понятие и содержание предпринимательства // Проблемы науки. 2017. №7 (20). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-soderzhanie-predprinimatelstva> (дата обращения: 11.03.2022).
13. Зомбарт, В. Буржуа. Этюды по истории духовного развития современного экономического человека. – М.: Наука, 1994. – 443 с.
14. Шумпетер Й. Теория экономического развития: Исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры / Й. Шумпетер; пер. с нем. – М., 1982. С. 169-170.
15. **Морозова В. С.** Понятие и структура предпринимательской компетентности менеджера. Ярославский педагогический вестник – 2012 – № 2 – Том II (Психолого-педагогические науки). 199-204.
16. Питер Друкер: Бизнес и инновации. Пер. с англ. Вильямс. 2009. –432 с.
17. O‘lmasov A., Sharifxo‘jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Mehnat, 1995, – 192 b.
18. Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. – T.: O‘zbekiston, 1999, – 224 b.
19. G‘ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T., 1998, – 32 b.



20. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. – T., 2007, – 137 b.
 21. Abulqosimov P., Qulmatov A. Tadbirkorlik sarmashaqqat faoliyat. // Iqtisod va hisobot, 1997, №9. 9-b.
 22. Do'stjanov T., Salaev S. Iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006, – 264 b.
 23. Murodova N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2016. – 234 b. B: 20.
 24. Navruzoda L.B. Inson tadbirkorlik qobiliyatini baholash mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Urganch, 2022-y. 16–31-bet.
 25. Eshov M.P. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollar. Monografiya. – T.: "Ma'naviyat", 2017. – 16 b.
 26. **Менеджер.** QOMUS.INFO. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/menejer-uz/>
 27. Pinchot G. 1985. Intrapreneuring. New York: Harper & Row. 365 p.
 28. Бизнес-консалтинг. ICPM Consulting «Консалтинговый центр института профессиональной сертификации менеджеров»
 29. **Предпринимательство: волшебная формула Питера Друкера для 21 века.**
 30. <https://pmba.vedomosti.ru/entrepreneurship-and-innovation/predprinimatelstvo-volshebnyaya-formula-pitera-drukera-dlya-21-veka> (дата обращения: 12.03.2022).
 31. Hall, B. P. (1994). *Values Shift: A Guide to Personal & Organizational Transformation*. California: Twin Lights Publishing. 288 p.
 32. Фотекова Т. А., Митрухина С. В., Власова Е. Н. И др. Исследование профессиональных склонностей к предпринимательской деятельности у молодежи Республики Хакасия. Журнал Психология. Серия: Познание №11 ноябрь 2020 г. 107-113 с.
 33. Cambridge dictionary. <https://dictionary.cambridge.org/ru/skill> (16.03.2022).
 34. Эльмира Максудова. Soft skills для IT. Что важнее: знать Java или уметь договариваться?. <https://vc.ru/flood/39199-soft-skills-dlya-it-chto-vazhnee-znat-java-ili-umet-dogovarivatsya> (15.03.2022).
 35. **Иванова О. А. Digital skills: оценка и прогноз спроса отраслей промышленности**// Развитие территорий. 2019. №2 (16). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/digital-skills-otsenka-i-prognoz-sprosa-otrasley-promyshlennosti> (дата обращения: 28.07.2022).
- Muallif ishlanmasi.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100